

## ILK BOLALIK DAVRIDA O'Z-O'ZINI ANGLASH

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim*

*yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Turdieva Dilorom Toshpo'latovna**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ikl bolalik davrining psixologik, xususiyatlari o'z-o'zini anglash va ilk bolalik davridagi inqiroz xaqida ma'lumotlar berilgan .*

**Kalit so'zlar ;** *ilk bolalik , o'z-o'zini anglash , inqiroz , predmentli faoliyat .*

### KIRISH

Ilm yo'lida sarflangan xar qancha investitsiyalar ortig'i bilan qoplanishiga shubxa yo'q .

Insonning psixik rivojlanishi , uning shaxs sifatida shakllanishi o'zini o'zi anglashining , ya'ni o'zini jismoniy , ma'naviy xamda ijtimoiy mavjudot sifatida anglashning qaror topishi bilan bog'liq . O'zini o'zi anglashning rivojlanishi xar bir bolada o'ziga hos tarzda kechadi . Biroq barcha bolalar , odatda xayotning birinchi yili oxiriga kelib , o'zini o'zi anglashning paydo bo'lganini tasdiqlovchi belgilar kuzatiladi ; bola o'zini , o'z tanasini uni o'rab turgan fazodan ajrata boshlaydi . O'zi-ni o'zi anglashning keyingi rivojlanishi bolaning o'z xoxishlari va umuman , faoliyati motivlarini anglash bilan bog'liq bo'ladi . O'z faoliyatining motivlarini anglash bolaga o'zini o'zi anglashning keyingi bosqichiga o'tish yani o'z harakatlaridan ajrata olishga yordam beradi . Ilk bolalik davri bola xayotidagi eng axamiyatga moillik , uning kelajakdagi psixalogik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi . Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqatga kirishishi , va predmetli faoliyatni egallash xususiyatlari tashkil etadi . Bolaning mustaqil xarakat qilishi yurishi tufayli ko'plab predmetlarga duch keladi , ularning nimalarga ishlatilishini "amal"da ko'rib biladi va o'zi ham ulardan kerakli o'rinda foydalana boshlaydi . Bolalar yurishni o'rgangach , fazoni ham bilib boradi . Kichkintoy bolalar "yaqindagi" fazoni qo'llarining harakati yordamida bilib oladilar , bunda ko'z ham ishtirok eta boshlaydi . Bog'chagacha yoshdagi bola " uzoqdagi " fazoni orentrovka qila boshlaydi , yura boshlaganida o'z oyog'i yordamida masofa va yo'nalish bilan tanishadi , uning ko'z qo'l oyoqlarining o'zaro kelishib harakat qilishi , boshlang'ich ko'z o'lchovi o'sadi , hamda masofa va predmetlarning turgan joylarini bir muncha aniq aytib berish ko'nimasi vujudga keladi . Bog'cha yoshidagi bola shaxsining rivojlanishida ancha

sezilarli bo'lgan o'zgarish o'zga kishining tashqi xususiyatlarini baxolashdan shaxsiy xususiyatlarini baholashga o'tishida ifodalanadi . Ilk yosh davrida o'ziga o'zi baho berish emotsional harakterga ega bo'ladi . Bolaning boshqalarga beradigan bahosi ham shunday hususiyatga ega bo'ladiki . Bola uni o'rab turgan kattalardan qaysi biriga ishonch his etsa , mehri tovlansa o'sha kishiga ijobiy baho beradi . Bog'cha yoshidagi bolaning o'ziga o'zi beradigan bahosida unda rivojlanib borayotgan g'urur va uyat tuyg'ulari ham aks etadi . O'zini o'zi anglashning rivojlanishi bolaning bilish va mativatsion sohalari shakillanishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi . Mana shu sohalarning rivojlanib borishi natijasida bola ham o'zini , ham o'zi egallab turgan vaziyatni anglashga qodir bo'la boshlaydi , ya'ni unda o'zining ijtimoiy "men " ini anglash shakllanadi . Bu hodisa bolaning keyingi yosh bosqichiga o'tishda hamda uning maktabga psixalogik tayyorligida muhim rol o'ynaydi . Bir yoshli va undan sal oshgan bolaning har hil harakatli o'yinlarda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi , ko'zlangan ishni bajarishdagi noxush kechinmalar uning ruhiy dunyosini dastlabki jazava (affektiv ) tuyg'u va hisni vujudga keltiradi . Shuningdek , o'z faoliyatida uchraydigan ko'ngilsiz voqealarga shaxsiy munosabatlarni bildirish -aks ettirishning yangi shakli ta'sirlanish (reaksiyaga kirish) ni tarkib toptirdi . Bolaning ma'lum bir rivojlanish bosqichidan boshqa bir yangi bosqichga o'tish oralig'ida vujudga keluvchi omil inqiroz deyiladi . Statistik ma'lumotlarga qaraganda , ushbu holat 2 yoshdan 4 yoshgacha bo'lgan vaqt oralig'ida davom etishi bilan bir qatorda , bir necha hafta yoxud 2-2,5 yil bola psixikasini qamrab oladi . Bu xolat bola asab tizimi bilan bog'liq Bola 3 yoshga qadam qo'ygani undagi eng muhim sifatlari ; fel atvori , atrof – muhitga o'zgalarga bo'lgan munosabati , xulqi, tafakkur va ong kabi psixik aks ettirishning turli ko'rinishlari shakillanadi . Bu yoshdagi bolalarning hissiyotlari nihoyatda kuchli bo'ladi , ammo ularda shu hissiyotlarni nazorat qilish , boshqarish ko'nikmasi hali shakillanmagan bo'ladi . Agar bolani qandaydir hissiyot qamrab olsa yoki biron narsaga nisbatan xoxish paydo bo'lsa , u shu istagiga erishmagunigacha qadar tinchlana olmaydi . Inqirozning ko'rinishlari ;

1.Negativizm – bola biror narsa qilishni istamaydi , chunki u kattalar tomonidan qilingan taklif bo'lganligi sabab .

2.O'jarlik- bola o'z aytganida oxirigacha turib oladi . Bu o'jarlini qat'iylik bilan aralashtirmaslik kerak . Qatiyatli bola o'z xoxlaganini talab qilishi bilan birga kattalarning fikrini inobatga oladi . O'jarlik esa shunchaki o'zi xoxlagan narsa bo'lishini talab qilishdir .

3.O'zboshimchalik – negativizmdan farqi shunda-ki, kattalarga emas, balki , hayotdagi barcha adolatlarga qarshi chiqadi .

4.O'z menini shakillantirish – bola bazi harakatlarni kattalarning yordamisiz bajarishi va mustaqil bo'lishga intiladi .

5. Agressivlik – bola to'satdan Ota-Onasi bilan urishadigan , ustidan kuladigan va sevimli o'yinchoqlarini sindiradigan bo'lib qoladi .

Boladagi bu qaysarlik uzoq davom etmaydi va bu paytda Ota-Onalar o'zlarini xotirjam tutishlari natijasida vaziyatni yumshatishlari mumkin. Bu o'tkinchi davr bolaning alohida shaxs sifatida rivojlanishning birinchi bosqichi . Ota-Onalar bu davrda o'zlarini qo'lga olib , har qanday holatda ham ularni yaxshi ko'rishni amalda ko'rsatishi juda muhim .

#### **XULOSA .**

Xulosa , qilib aytganda ilk yoshda bolalar baholash va o'zini -o'zi anglash hissiy xususiyatga ega .Atrofdagi eng zo'r ijobiy baxoni bola sevgi , ishonch mehrni his qiladiganlar oilasidagi kekxa yoshlardan oladi . O'z o'zini anglash muommosi psixalogyadagi,eng-qiyin/muammolardan,biridir.Uni o'rgninishning eng samarali usuli bu o'zini – o'zi anglash genezisini o'rganish bo'lib , u asosan ikkita asosiy omil bolaning o'z amaliy faoliyati va uning boshqa odamlar bilan munosabatlari ta'sirida shakillanadi . Shaxs shakillanishining dastlabgi bosqichlarida (erta davrning oxiri , maktabgacha yoshdagi davrning boshlanishi ) o'z-o'zini hurmat qilish genezesida bolaning kattalar bilan muloqoti hal qiluvchi ahamiyatga ega .

#### **ADABIYOTLAR,RO'YXATI;**

1.Bolalar psixalogyasi va psixodiagnostikasi. Z.Nishonova , G.Alimova ,M.Arsanboyeva , A.Turg'unboyeva . T.Innovatsiyaziyo 2021 .

2.Galperin P.Ya., Zaporjets A.V., Karpova S.N. Rivojlanish psixologiyasining dolzarb muammolari. -M., 217 yil

3.Zagvyazinskiy VI, Ataxanov R. Psixologik-pedagogik tadqiqot metodologiyasi va usullari. -M., 2001 yil